

## BIOETIKA VA DIN

Yoldosheva Sh. U. TDSI talabasi.

Ilmiy raxbar: Siddiqov N.N

**Annotatsiya:** Bioetika va din -musulmonlar orasida biomedsinaning etikasiga oid savollariga javob izlashda diniy an'analar asosiy manba sifatida hali ham ustuvor mavqega ega.

**Kalit sozlar:** Bioetika, axloq, din, dilemmalar, qonun, etika, islom axloqlari, biotibbiyat, islom bioetikasi

Oxirgi o'n yilliklarda fan-texnika sohasida erishilayotgan yutuqlar bilan bog'liq axloqiy murakkab masalalar (dilemmalar), xoh diniy, xoh dunyoviy jamiyat bo'lsa-da, har qanday ko'rinishdagi jamiyatga dahl qilmoqda. "Bunda bioaxloq (bioetika) sohasidagi sekulyarizatsiya hodisasi bioetika borasidagi babs-munozaralarda ustunlik qilmoqda. Bioetika sohasida diniy-tibbiy an'ana o'rniga falsafiy-huquqiy konsepsiya qaror topayotganligi kuzatilmoxda", - deb ta'kidlagan edi Deniyel Kallaan (Daniel Callahan) bundan yigirma yil oldin.

Biroq ko'plab diniy jamoalarda, misol uchun, musulmonlar orasida biomedsinaning etikasiga oid savollariga javob izlashda diniy an'analar asosiy manba sifatida hali ham ustuvor mavqega ega. 2010-2011 yillarda islomiy jamoalarda bioetikaning muhim masalalarini belgilash uchun xalqaro anketa so'rovlari o'tkazildi. Ushbu maqolada mazkur tadqiqotning natijalari, ya'ni musulmon mamlakatlarida bioetika rivojlanishining o'nta muhim yo'nalishlari taqdim etilgan.

### Qonun, etika va Islom ulamolarining fikri

Islom jamiyatida musulmon shaxsning shaxsiy va ijtimoiy hayoti, uning salomatlik, kasallik, hayot va o'limga bo'lgan munosabatlari Islom ta'limotidan kelib chiqadi. Shunday qilib, musulmonlar uchun o'zlarining diniy e'tiqodlari salomatlik masalasida ham biron bir qaror qabul qilishda kuchli omil hisoblanadi.

Islomning etika-huquqiy an'ani ham biotibbiyat ko'yayotgan savollarga javob izlashga asos bo'lib xizmat qiladi. U klinik va tadqiqot amaliyotida qaror qabul qilish jarayoniga ham tatbiq qilinadi. Biroq, Islomning barcha huquqiy maktablarini boshqarish bo'yicha markazlashtirilgan bir idoraning yo'qligi sababli, amal qiladigan diniy amaliyotni Shariat (fiqh) sohasidagi mutaxassis (faqih)lar belgilab beradilar. Shu asnoda, Islom yurisprudensiyasi tomonidan bioetika masalalarini ko'rib chiqishda, agar ko'rيلayotgan predmetga nisbatan muqaddas matnlarda aniq ko'rsatma (nass) bo'lmasa, qaror qabul qilish ijтиҳод (ya'ni, faqihlarning xulosasi) yo'li bilan bo'ladi.

Farhod Muazzamning aytishicha, Islom bioetika masalalari bo'yicha bahs va qaror qabul qilinishi qandaydir vakuum ichida emas, balki, bir tarafdan, ma'lum ma'nodagi siyosiy-huquqiy tizim va, ikkinchi tarafdan, mavjud ijtimoiy qoidalar asosida bo'ladi.



Etikaning qiyin va murakkab tamoyillarini ta'minlash Islom va soha mutaxassilari hamkorligida amalga oshiriladi. Tadqiqotga jalb qilingan mutaxassislar so'ziga ko'ra, qonun, etika va ulamolarning fikrlari o'rta sidagi munosabatlar Islom mamlakatlarida asosiy yigirmata bioetika muammolari ichida birinchi raqamli ustuvor masala hisoblanadi.

Etikaning barcha tizimlari, diniy yoki diniy bo'lmasin, etika va qonun masalasi juda muhim masala hisoblanib, babs aniq bo'lishini talab qiladi. Biroq, Islom haqida so'z borganida, bu yerda yana bir muhim omil katta rol o'ynaydi, ya'ni fatvo katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, Islomda bioetika - bu, asosan, Islom huquqi va etikasi tarmoqlaridan biridir. Bioetik adabiyotlarga ko'ra, va aynan Islom bioetikasida, Islom ulamolari ko'pincha Islomning asosiy manbalariga havola qiladilar: Qur'oni Karim va Sunnatga (Payg'ambar (sollalohu alayhi vasallam)ning aytganlari va qilganlari). Biroq, ulamolarning asosiy vazifasi - u yoki bu bioetik masala yuzasidan ijtihod yo'li bilan "mustaqil huquqiy fikr va sharh" berishdir. Buni Islom an'analarida Islom huquqining manbalarini sharhlash asosida qaror qabul qilish, deyiladi. Amaliyotda, so'z bioetik dilemma haqida borar ekan, munozara va qaror qabul qilishda ham biolog-olimlar, ham shifokorlar, ham diniy ulamolar ishtirok etadilar.

Turli masalalarga javob izlash jarayonida, birinchi bo'lib, o'r ganilayotgan masala bo'yicha dinda nima deyilganiga qaraladi. Masalan, a'zolarni ko'chirishda avvalo Shariat miysi o'lgan patsiyent tanasidan uning a'zosini olishga ruxsat beradimi degan savolni o'rta ga tashlaydi va agar javob ijobiy bo'lsa, masala qonun chiqaruvchilarga havola qilinadi. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, biz ko'rib chiqayotgan masala. Etikaning quyidagi mezoniy tushunchalari — kategoriyalari bor: fazilat va illat, yaxshilik va yomonlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik,adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, baxt, hayotning ma'nosi va boshqalar Axloq inson va jamiyat hayotining barcha (shaxsiy, jamoaviy, kasbiy va h.k.) jabhalarini qamrab olganligi tufayli uni o'r ganuvchi etika barcha fanlar bilan aloqador. Ayniqsa, uning ma'naviyat tizimidagi fanlarga ta'siri katta. Etikaning estetika bilan bog'liqligi san'at vositasida ro'y beradi; har bir san'at asarida axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi, san'atkor o'z davri axloqiy darajasini va unga munosabatini badiiy qiyofalar orqali bevosita yoxud bilvosita aks ettiradi. Demak, estetika o'r ganayotgan har bir badiiy asar ayni paytda etika nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi. Etikaning dinshunoslik bilan munosabati har ikkala fanning axloqiy mezonlar muammosini hal etishga qaratilgani bilan bog'liq. Bunda din — vosita, axloq — maqsad tarzida namoyon bo'ladi. Har bir dinning muqaddas kitobi xudoning bandalarini ham e'tiqodiy, ham axloqiy insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan. Shuningdek, komil inson muammosi har ikkala fan uchun umumiylis hisoblanadi; farq shundaki, etika bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai nazaridan yondashadi. Etika huquqshunoslik bilan chambarchas bog'liq; ko'p hollarda axloqiy va huquqiy meyorlar mohiyatan bir xil bo'ladi, ular faqat yondashuvda — sanksiyalarning joriy etilishidagi usul orqali farqlanadi. Shunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Etikaning huquqshunos odobi deb atalgan maxsus sohasi ham



mavjud. Etika o‘zining nazariy va ayniqsa, amaliy jihatlari bilan ped. fanining asosi hisoblanadi; ta’lim tizimidagi ta’limtarbiya o‘zini har qadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi. Shuningdek, etika psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, ekologiya kabi qator fanlar bilan ham mustahkam aloqador, ular muammolarini hal qilishda axloqiy nuqtai nazar, axloqshunoslik nazariyalari muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sher, Abdulla. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent, 2000.
- 2.Navoiy A., Mahbub ul-qulub (Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildli, 14j.), Toshkent, 1998.
- 3.Forobiy, Fozil odamlar shahri, Toshkent, 1993.
- 4.Avloniy A., Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent, 1992.
- 5.Jumaboyev yil, O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan, Toshkent, 1997.
- 6.Yusupov etika, Inson kamolotining ma’naviy asoslari, Toshkent, 1998.
- 7.Zagritdinova F., Nekotorne problemn biomeditsinskoy etiki, Toshkent, 2005.

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҶАМЛАШТИРИШ: Сиддиков Нурали Нишоналиевич,  
ТДСИ Ижтимоий фанлар биоэтика курси билан кафедраси катта ўқитувчиси

НН Сиддиков - Научно-практическая конференция, 2022

СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ МОЛОДЫХ СОБСТВЕННИКОВ В СФЕРЕ СРЕДНЕГО И МАЛОГО БИЗНЕСА

НН Сиддиков - Социосфера, 2020